

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

YERNAZAROVA SAPURA KEULIMJAEVNA

**BERDAQ BADIY MEROSINING YOSHLARNI FALSAFIY
TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDAGI
ILMIY-AMALIY AHAMIYATI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Yernazarova Sapura Keulimjaevna

Berdaq badiiy merosining yoshlarni falsafiy tafakkurini shakllantirish va
rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati..... 3

Ерназарова Сапура Кеулимжаевна

Научно-практическое значение художественного наследия Бердаха в
формировании и развитии философского мышления молодежи..... 23

Yernazarova Sapura Keulimjaevna

The scientific and practical significance of Berdakh's artistic heritage in the
formation and development of youth philosophical thinking 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

YERNAZAROVA SAPURA KEULIMJAEVNA

**BERDAQ BADIY MEROSINING YOSHLARNI FALSAFIY
TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDAGI
ILMIY-AMALIY AHAMIYATI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.1.PhD/Fal464 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Tursunova Olmos Fayziyevna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№49 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda buyuk mutafakkirlarning boy ma'naviy merosi, axloqiy tarbiya va inson kamoloti bilan bog'liq qarashlariga bo'lgan talab har qachongidan-da oshib bormoqda. Zero, mutafakkirlarning ijtimoiy, axloqiy va falsafiy qarashlari bugungi kunda jamiyatda yot g'oya tahdidlardan himoyalashda, ayniqsa yosh avlodning tafakkurini shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy axloqiy-estetik qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, buyuk allomalarning badiiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini innovatsion tarzda zamona bilan uyg'un holda yoshlar ma'naviy tafakkurini yuksaltirish mexanizmlarini ishlab chiqish va axloqiy tarbiya mezonlarini aniqlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Jahon ilm-fanida buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish va tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy, amaliy va fundamental tadqiqotlar soni tobora oshib bormoqda. Xususan, ularning ma'naviy merosida inson va uning mohiyati, ma'naviy barkamollik mezonlarining ijtimoiy hayotdagi o'rni, komil inson haqidagi qarashlarining axloqiy tahlili va ijtimoiy-falsafiy masalalari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar konstruktiv ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga allomalarning boy ma'naviy merosini yosh avlod ongiga singdirish usul-vositalarini ishlab chiqish, orzu-istaklarini, ideallarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mexanizmlarini tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimizda buyuk mutafakkirlarning jumladan, yetuk ma'naviyat egasi bo'lgan Berdaqning badiiy-ma'naviy merosini ilmiy jihatdan tadqiq etish orqali yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur"¹. Bu esa, bugungi jamiyat taraqqiyoti va yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda Berdaq tomonidan ilgari surilgan ilg'or falsafiy g'oyalarning axloqiy ahamiyatini falsafiy tadqiq etish hamda uning kontseptual asoslarini o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirish masalasi dolzarb ekanligini davrning o'zi ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, shuningdek, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va Vazirlar

¹Мирзиёев Ш.М. "Буюк алломалар, адіб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида"ги Қарори // Халқ сўзи. 2018 йил, 15-май.

Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘arb mutafakkirlari ma‘naviy merosida inson mohiyati va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari hamda insonda falsafiy tafakkurni shakllantirish masalalari bo‘yicha yetakchi shu soha bo‘yicha mutaxassislar X.Vizer, P.Gamilton, B.Valez, E.G.Dattatreyan¹, S.Mejas, U.Morrislar², fransuz olimlari Katrmer, Pave de Kurteyl tomonidan tadqiq etilgan. Ular tomonidan Berdaq badiiy ijodiyotining jahon falsafiy va adabiy tafakkuri rivojida o‘rni va rolini ochib berilganligi fan tarixida juda katta qiziqish bilan o‘rganilgan.

MDH olimlaridan A.Boldirev, A.Borovkov, A.I.Rakitov, N.S.Rozov, A.X.Samiyevlar tomonidan ma‘naviy meros, tarixiy dunyoqarash hamda ijtimoiy o‘zlikni anglash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan aloqadorlik jihatlari o‘rganilgan.

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotshunos hamda faylasuf olimlardan O‘.Aleuov³, J.Bazarbayev⁴, X.Vaxidov, N.Davqarayev⁵, Q.Jarimbetov⁶, A.Murtazayev⁷, M.Nurmuxamedov⁸, A.Paxratdinov⁹, I.Sagotov¹⁰, X.Xamidov¹¹, K.Qudayberganovlar va boshqalarning falsafiy mulohazalarini tadqiq qilib, ularning milliy ma‘naviyatimizdagi rolini ko‘rsatish nazarda tutiladi.

Ushbu tadqiqotchilarning ilmiy qarashlarida mutafakkir ijodiga falsafiy va axloqiy jihatdan yondashuv ko‘proq aks etgan bo‘lib, ularning Berdaq badiiy-estetik merosiga nisbatan munosabatlarida adabiy janr masalalari tadqiqining

¹ Dattatreyan Ethiraj Gabriel. "Aesthetic Citizenship: Popular Culture, Migrant Youth, and the Making of 'World Class' Delhi" (2015). Publicly Accessible Penn Dissertations. <https://repository.upenn.edu/edissertations/1037>.

² Hamilton P. Historicism: The New Critical Idiom. - New York, 1996; Morris W. Toward a New Historicism. Princeton N.J, 1972; Veese H. The New Historicism. - New York, 1989;

³ Олєуов О. Қарақалпақстандағы тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиўи хәм раўажланыўы. – Нөкис, 1993. – 342 б.

⁴ Базарбаев Ж. Руўхиятымыз маржанлары ямаса үлгили ел үлкенин көрегенли ел өткенин қәдирлейди.- Нөкис: Билим, 2008. – 29 б. Базарбаев Ж. Миллий идея – бизиң идея. -Нөкис, 2003. – 182 б.

⁵ Даўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы. II том. - Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.

⁶ Жәримбетов Қ. Бердақтың нәсиятлары бизиң руўхый ғәзийнемиз. –Нөкис, 1998. – 22 б.

⁷ Муртазаев А. Бердақ шығармаларындағы заманағөйлик хәм шеберлик. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. Муртазаев А. Мастерство Бердаха. Диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. - Нукус. 1993.

⁸ Нурмухамедов М.К.Бердах – великий поэт каракалпакского народа.- Ташкент: Фан, 1977. – 32 б.

⁹ Пахратдинов А. Бердақ шайыр дөретиўшилигиниң гейпара мәселелери. – Н.: Қарақалпақстан, 2003. – 43 б.

¹⁰ Сағитов И. Сахра бүлбүли. (Қарақалпақ халқының уллы демократ шайыры Бердақтың өмири хәм творчествосы ҳақында монография). – Нөкис, 1974. – 72 б.

¹¹ Хамидов Х. Рукописное наследие Бердаха. – Нукус: Билим, 1995. – 118 б.

ustunligini ko'rishimiz mumkin. Biroq Berdaq badiiy merosining yoshlar falsafiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati yetarlicha o'rganilmagan. Shu boisdan ham mazkur tadqiqot ishimizda mazkur muammo ijtimoiy-falsafiy jihatdan kengroq tadqiq etilishiga qaratilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 1-MT "Barqaror demokratik huquqiy davlat qurishda axloqiy-ma'naviy tarbiya va falsafiy, huquqiy ong dialektikasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Berdaqning badiiy, ma'naviy merosining yoshlar falsafiy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIX asrdagi qoraqalpoq xalqining boy ma'naviy-axloqiy ijtimoiy-siyosiy hayotini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish;

Berdag yashagan davrdagi tarixiy-falsafiy muhitda madaniyat va ilm-fan rivojlanishining o'ziga xos tomonlarini tadqiq qilishda shoir merosining ilmiy, badiiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini falsafiy jihatdan yoritish;

qoraqalpoq xalqining boy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodiyotining Berdaq badiiy ijodiga ta'sirini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish;

yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda Berdaq badiiy-axloqiy qarashlarining o'rnini asoslash;

Berdag dunyoqarashida islom diniga taalluqli bo'lgan masalalarni tahlil qilish barobarida uning ijodida Qur'oni Karim, Hadisi Sharifning o'rnini masalalarining mazmuni va ahamiyatini ko'rsatish;

Ahmad Yassaviy, Farididdin Attor, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ma'naviy merosining Berdaq ijodiga ta'sirini ilmiy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Berdaq ma'naviy va axloqiy-estetik merosi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Berdaq badiiy ijodining yoshlar dunyoqarashini shakllantirish va axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashdagi o'rnini tizimlilik asosida tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, umumiylik, yakkalik, qiyosiy tahlil, nazariya va amaliyot uyg'unligi kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Berdag ma'naviy merosi o'sha davrdagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, odamlarning turmush darajasi, axloqi va kayfiyati ta'sirida o'zaro aloqadorlik tamoyili asosida shakllanganligi falsafiy asoslangan;

Berdag falsafasidagi ontologik, gnoseologik va aksiologik qarashlar sotsiostrukturaviy determenantlar (ijtimoiy muhit ta'siri) natijasida dualizm, panteizm elementlari orqali ratsionalizm (aqliy) tamoyilga asoslanganligi isbotlangan;

Berdaq badiiy-falsafiy merosidagi adolat, vatanparvarlik, ulug'vorlik kabi axloqiy-estetik mezoniy tushunchalarning gumanistik mohiyati va ularning zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga pozitiv ta'siri ochib berilgan;

Berdaq asarlarining g'oyaviy va axloqiy mazmuni falsafiy tafakkur tizimida adolatlilik, haqiqat, xalqparvarlik jamiyat kelajagi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda adolatsizlik, jaholatni tugatishda substantsional asos ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq xalqining boy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodiyotining Berdaq badiiy ijodiga ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan yoritilgan;

Berdaq badiiy-axloqiy qarashlarining yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o'rni asoslab berilgan;

falsafa, axloqshunoslik, ma'naviyatshunoslik bo'yicha ma'ruzalar o'qishda va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi;

Berdaq badiiy-ma'naviy merosining yoshlar falsafiy dunyoqarashini shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan "Berdaq badiiy-ijodiy-axloqiy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni" nomli ijtimoiy-falsafiy tadqiqot dasturi va savolnoma tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda xalqaro va respublikamiz miqyosida tashkil etilgan ilmiy konferensiyalarning to'plamlari, OAK ro'yxatida mavjud jurnallar va xorijdagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosada aks etgan taklif va tavsiyalar, tadqiqotning amaliyotda joriylanishi, olingan natijalar amaliyotda qo'llanilgani bo'yicha tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan ma'lumotnomalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, qoraqalpoq mumtoz adabiyotining taniqli siymosi, faylasuf, mutafakkir, XIX asr ijtimoiy-axloqiy tafakkurining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Berdaq G'arg'aboy o'g'li haqidagi ma'lumotlardan kengroq foydalanish asosida barkamol avlodni tarbiyalash va yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirishda, mavzuga doir tadqiqotlarni boyitib borishda dissertatsiyadagi nazariy xulosalar ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, ilmiy-amaliy bilimlardan nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan ilmiy, badiiy-falsafiy xulosalardan "Axloqshunoslik", "Qoraqalpoq adabiyotida inson falsafasi", "Ma'naviyatshunoslik", "Kasbiy ma'naviyat" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv majmualar yaratishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda hamda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni yuksaltirishda, shuningdek, Berdaqning ma'naviy merosi bilan qiziquvchilar uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda asosiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Berdaqning badiiy-falsafiy qarashlarini yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishda qo'llash, tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar asosida:

Berdaq ma'naviy merosi o'sha davrdagi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, odamlarning turmush darajasi, axloqi va kayfiyati ta'sirida o'zaro aloqadorlik

tamoyili asosida shakllanganligiga oid ilmiy xulosalar, taklif-tafsiyalardan Qoraqalpog‘iston “Berdaq” jamoat fondining 2021-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining “Buyuk ajdodlarimizning merosi Vatanimiz taraqqiyotining poydevori” nomli 72-14/19-son amaliy grant loyihasi ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros boshqarmasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2022-yil 5-avgustdagi 105-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yurtimiz tarixi, xalqimizning madaniy, adabiy merosi bilan tanishtirish borasida targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish, buyuk ajdodlarimizning ilmga, vatanga, do‘st-birodarlikka sadoqatini namoyon etishda tarixiy kitoblar ko‘rgazmasini tashkil qilib, aholi, ayniqsa, yoshlarning o‘tmish qadriyatlariga bo‘lgan tushunchasini mustahkamlash bilan birgalikda yoshlarning kitobxonlikka qiziqishini orttirishga va yoshlar dunyoqarashi yuksaltirishga xizmat qilgan;

Berdaq falsafasidagi ontologik, gnoseologik va aksiologik qarashlar sotsiostrukturaviy determinantlar (ijtimoiy muhit ta‘siri) natijasida dualizm, panteizm elementlari orqali ratsionalizm (aqliy) tamoyilga asoslanganligiga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashining 2022-yil 28-fevraldagi 01-113-sonli “Yo‘l xarita”sining 45-bandi ijrosini ta‘minlashda “Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosini o‘rganish, ularning insonparvarlik g‘oyalarini hayotga keng tatbiq etish, ajdodlarga munosib qilib tarbiyalashda qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri va ma‘rifatparvari Berdaq bobomizning tavallud kunini keng nishonlashda yosh shoir va adiblar, ijodkorlar hamda adabiyotshunos olimlar ishtirokidagi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etishda, Kengashning 49-bandidagi “Ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik” shiori ostidagi targ‘ibot dasturini ishlab chiqishda va “Ma‘naviyat festivali” mavzusidagi tadbir ssenariysi dasturini ishlab chiqishga xizmat qilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 5-avgustdagi 01-13/95-son ma‘lumotnomasi). Natijada yoshlar falsafiy tafakkurini shakllantirish hamda buyuk ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosini singdirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Berdaq badiiy-falsafiy merosidagi adolat, vatanparvarlik, ulug‘vorlik kabi axloqiy-estetik mezoniy tushunchalarning gumanistik mohiyati va ularning zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga pozitiv ta‘siriga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kengashining 2021-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturining 58-bandidagi “Kitob-millatning bebaho, ma‘naviy va madaniy merosi” mavzusida, 63-bandida “Buyuk tarixdan – buyuk kelajak sari” mavzusida, 2022-yil 10-15-may kunlari Respublika miqyosida o‘tkazilgan “Bo‘zatov fest” mavzusidagi “01-08/10-05/220” raqamli tadbir dastur loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar Ittifoqi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kengashining 2022-yil 27-sentyabrdagi 02-07/218-son ma‘lumotnomasi). Natijada yoshlar

ma'naviyatining yuksalishiga, ularning vatanga daxldorlik hissi bilan yashashlariga hamda kitob mutolaasiga qiziqishlarining ortishiga xizmat qilgan.

Berdaq asarlarining g'oyaviy va axloqiy mazmuni falsafiy tafakkur tizimida adolatlilik, haqiqat, xalqparvarlik jamiyat kelajagi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda adolatsizlik, jaholatni tugatishda substantsional asos ekanligiga oid ilmiy taklif va tavsiyalardan Qoraqalpog'iston teleradiokanali tomonidan 2022-yilda efirga uzatilgan «Assalawma-áleykum, Qaraqalpaqstan» ko'rsatuvi hamda "Gáwhar sózler" ko'rsatuvini va eshittirishlarining dastur ssenariysinini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2022-yil 23-avgustdagi 05-22/507-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy fikr-mulohazalar asosida yoshlarning falsafiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, Berdaq badiiy merosi orqali yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ko'nikmasi va madaniyatini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta risola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiya'ning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, yetti paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy talim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Berdaq badiiy ijodida qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-siyosiy hayoti aks etishining nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda Berdaq badiiy ijodida qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiyoti kishilarning ilk falsafiy tafakkuri, afsonalari, rivoyatlari, shajaralari, chechanlik hikmatli so'zlari, islom dini, Qur'oni Karim va hadislar bilan chambarchas bog'liqligi aks etganligi tavsiflangan. Uning ma'naviy boyligi manbalari, unda tavsiflangan xalq falsafasining hisobsiz hikmatlari mazmunida aks ettirilgan qadriyatlar, kundalik turmushi bilan bog'liq hayotiy mo'jizalar yuz beruvchi eng a'lo ma'naviy-axloqiy g'oyalar va ideallar yoritilgan. Berdaq badiiy ijodida qoraqalpoq xalqi ijtimoiy hayotining aks etishi, xalq og'zaki ijodiyoti,

qoraqalpoq xalqining diniy e'tiqodi, ilohiyot falsafasi, ularning dialektik uyg'unligi ochib berilgan. Shu bilan birgalikda Berdaq g'oyalari asosida bugungi kunda yoshlar falsafiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiyotining etnograflar uchun ham, adabiyotchilar, tilshunoslar, tarixchilar uchun ham ahamiyati katta. Ushbu og'zaki adabiyotining qaysi sohasidan bo'lsa ham, xalqning donoligini, orzu-istaklarini, shuningdek, turli ijtimoiy munosabatlarni, tarixiy hodisalar izini topish mumkin. Xalq og'zaki adabiyotining deyarli hammasi ma'lum bir tarixiy-siyosiy vaziyatlar asnosida paydo bo'lgan. Xalq og'zaki adabiyoti durdonalarining ana shunday nodir turlarini ko'p davrlar, vaqtlar, tarixiy-siyosiy vaziyatlarni o'z boshlaridan o'tkazgan xalqlargina yarata olishi mumkin. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Yurtimizda 100 tomlik «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari» majmuasi nashr etilmoqda. Uning 59 jildi aynan xalq dostonlaridan iborat ekanligini qayd etish lozim. Shuningdek, ko'p tomlik «Qoraqalpoq folklori» to'plami ham chop etildi»¹ - deya ta'kidlaydi.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiyoti, ya'ni folklor namunalari barcha ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismlarini o'zida atroflicha aks ettirgan hodisadir. U qoraqalpoq xalqining ma'naviy boyligi sifatida madaniyat tarixida katta o'rin egallaydi. Madaniyatning hamda milliy falsafaning rivojlanishida eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqi o'zining og'zaki she'riy ijodiyotiga juda boy xalq hisoblanadi. Asrlar davomida qoraqalpoq xalqi o'zining boshidan o'tkazgan qayg'u-hasratlarini, ozod va baxtli hayotga intilgan orzu-armonlarini bayon qilib badiiy so'z namunalarini yaratib keldi.

Xalq qo'shiqlar, ertaklar, maqol-matallar, «Qirq qiz», «Qo'blan», «Alpomish» kabi xalq dostonlari – bularning aksariyati asosan xalqning donoligini, istak-orzularini ko'rsatadigan xalq ijodining boy xazinasini. Qoraqalpoq xalqi milliy adabiyotining shakllanish va rivojlanish jarayonida eposning tutgan roli alohida ahamiyatga ega. Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti vakillari: Jiyyen Jirov, Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq va boshqa shoirlar ko'p hollarda o'z asarlari manbasini folklordan olgan.

Tadqiqotda qoraqalpoq xalqining folklor namunalariga boy, poetik ijodiyotga mohir xalq ekanligini, mazkur masala bo'yicha Sharq adabiyotini, madaniyatini tadqiq qilgan yetakchi olimlar ham buni takidlab o'tganligini alohida ko'rsatilgan. Qoraqalpoq xalqi badiiy so'zni, so'zga chechanlikni yuqori baholaydi. So'z topqirligi, chechanlik, so'z musobaqasi, maqol, savol-javob, aytishuv, hazil-mutoyibani yaxshi ko'rish – qoraqalpoqlarning alohida o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Qoraqalpoq xalqi badiiy so'zni yuksak baholashini ularning quyidagi maqollari ham yorqin isbotlaydi:

Oylanıp bilip babalar,
Sózdi dúrge teńgergen,
Tawıp aytqan hár sózin,

¹ Мирзиёев Ш.М. Фольклор санъати – инсониятнинг болалик кўшиғи // Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – Б. 137.

Oylama kem deb gáwhárdén,
(O‘ylanib bilib bobolar,
So‘zni durga o‘xshatgan,
Topib aytgan har so‘zni,
O‘ylama kam deb gavhardan).

Haqiqatan ham qoraqalpoq xalqining boy og‘zaki ijodi bo‘lgan xilma-xillikda xalq tafakkur tarzi va falsafaning qaysi sohasi bo‘lmasin, u inson hayotining ma‘nosimi yoki insonning o‘zini anglash va bilish xususiyatimi, do‘stlik, mehribonlik, axloq, Vatanni sevish, muhabbat va oila falsafasimi, tinchlik va totuvlik, bag‘rikenglik masalalarimi – barchasiga hayotiy tajriba asosida ilmiy jihatdan fikr yuritgan qarashlarni aks ettirib, xalqni ma‘naviy jihatdan tarbiyalashga, birlashtirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qoraqalpoq og‘zaki ijodiyotining yana bir sohasi – maqol-matallar. Ular xalqning necha ming yillar davomida puxtalab, g‘ubor yuqdirmasdan otadan bolaga, ajdodlardan avlodlarga yetkazib, asrab kelayotgan asl ma‘naviy boyligi. Unga o‘zlarining uzoq yillik mehnat tajribalari bilan muqaddas o‘y-fikrlarini singdirib, donolik, zukkolikning namunasi qilib bugungi kunimizgacha yetib kelgan.

Qoraqalpoq xalq maqol-matallarida yaxshilik va yomonlik, do‘st va dushman, achchiq va chuchuk, halol va harom, onglilik va ongsizlik kabi ko‘plab hayot tafsilotlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Umuman, hayot yoki odamlarga salbiy ta‘sir qiladigan yaramas illatlar, narsa yoki hodisa qattiq tanqid ostiga olinadi. Adolat, vijdon pokligi noyob boylik sifatida baholanib, kelajak avlodga vasiyat etib qoldiriladi.

Qoraqalpoq to‘lg‘ovlarida, tarixiy xalq qo‘shiqlarida, qahramonlik jirlarida va dostonlarida mustaqillik mafkurasining bosh g‘oyasi va asosiy g‘oyalari bo‘lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi g‘oyalari o‘zining xalqchil ildizlariga ega. Agar to‘lg‘ovlarda xalq ozodligi, yurt mustaqilligi birlik bilan himoya qilinmasa, unga to‘g‘ri rahnomalik qiladigan yurtboshilar bo‘lmasa, qanday buyuk davlat bo‘lsa ham, o‘z mustaqilligini yo‘qotib, farovon hayotidan ajralishini yoritib beradi.

Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodiyotida millatimiz, jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodga xos axloqiy fazilatlar kuylanadi. To‘g‘ri so‘zlilik, adolat, imyon, diyonat, insof, totuvlik, do‘stlik, va‘daga vafodorlik, muayyan kasb egasi bo‘lish, halol mehnat bilan kun kechirish, farovon hayotga intilish kabi g‘oyalar mustahkam o‘rin olgan. Yutuqli tomoni shundaki, bu g‘oyalarga yoshlar faqat shiorlar, zerikarli suhbatlar yoki pand-nasihatlar orqali emas, balki rang-barang obrazlarni emotsional idrok etish jarayonida tarbiyalanadi. Folklordagi ijobiy qahramonlarga taqlid qilish va, aksincha, salbiy qahramonlarni fosh qilish orqali g‘oyaviy tarbiyaning samaradorligi oshadi.

Tadqiqotda qoraqalpoq og‘zaki ijodiyotida bugungi kunda ijobiy axloqiy sifatlarning biri sifatida baholanadigan tadbirkorlik, ishning ko‘zini topa bilish fazilatlar ham muayyan darajada o‘rin olgan. «Qalashini bilsang, qor yonadi», deydi dono xalqimiz. Eng muhim jihatlaridan biri xalq og‘zaki ijodiyoti odamlarni

dangasalik – illatlarning boshi, kambag‘allikning manbayi ekanligiga ishonitiradi va undan yiroq bo‘lishga chorlaydi.

Qoraqalpoq xalqi azaldan Alloh bergan ne‘matlariga shukr qilish, yolg‘on gapirmaslik, dangasa bo‘lmaslik, manmanlikka, qimorbozlikka, giyohvandlikka va nafsga berilmaslik, g‘iybat, fisq-u fasod, ochko‘zlikdan yiroq bo‘lish, tavakkal qilish, yaxshi niyat qilish, halol mehnat orqali kun kechirish, hech kimni kamsitmaslik, ayollar, yosh bolalar, nogiron va bechoralar boshini silash, ularga yordam berish ishlariga amal qilgan va uni sidqidildan doimo bajarishga harakat qilgan.

Xalqimiz dangasalik kabi illatlarni qat’iy qoralab, insonlarni halol risq topish yo‘lida harakat qilish va chin ixlos bilan mehnat qilib hayot kechirishga chaqiradi. Xalq dushmanlarining chet el bosqinchilari iskanjasida doimo vayronagarchilikka uchrab, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurgan qoraqalpoq xalqi asrlar mobaynida o‘zining fidokorona mehnati orqasida kun kechirib kelgan.

Berdaq asarlari tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, falsafaning asosiy masalalariga bog‘liq qarashlari xususida bugungi kungacha aytarliq fikr shakllangani yo‘q. Mutafakkir shoirning teran tafakkuri va dunyoqarashining ichki mazmun-mohiyati oxirigacha yoritilmay, tushuntirilmay kelmoqda. Shoirning «Teran aql kerak, so‘zni tizishga, tiniq xayol kerak, barchasini sezishga» yoki «Suv ichida tashvishsiz suzmoqqa, bir qayiq yuzta soldan yaxshiroq» degan satrlari shoir falsafiy qarashlarining asosi, ma‘nosining teranligi jihatidan milliy madaniyat doirasidan oshgan yuksak mazmunga ega meros. Chunki odamning boshqa jonzotlardan farqi uning aqli, tafakkuri va ongidir.

Berdaq ijodining kuchi uning chin xalqchilligida, xalq hasratiga, xalq istagiga mosligida. O‘z yurtini, o‘z xalqini sevgan butun hayotini xalqqa xizmat qilish uchun bag‘ishlaganligida. Buni shoir o‘z she‘riy satrlarida «Márt jigitle xalıq isine taq turar» (Mard yigitlar xalq ishiga shay turar), deb tasdiqlaydi.

Berdaq ijodida mehnat va unga munosabat quyidagicha talqin qilinadi. «Mehnat – boylikning otasi, yer – uning onasi», deydi donishmandlar. Odam paydo bo‘lganidan buyon halol mehnati hisobidan kun kechirib kelmoqda. Odam mehnatni, mehnat qurollarini uzluksiz takomillashtirib borishi orqali o‘tib, rivojlanib, takomillasha borgan. Mehnat qilishning ahamiyatini ta’kidlab va mehnatsiz topilgan dunyoni qoralab, Berdaq shoir «Miynetsiz dúnya izleme, Jandi otqa jağadursañ» (Mehnatsiz dunyo izlama, Jonni o‘tga yoqadur), deydi.

Berdaq barcha asarlarida odamlarni halollik bilan yashashga chaqiradi, erkin mehnatni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Qoraqalpoq xalqi asrlar davomida o‘zining fidokorona mehnati orqasidan kun kechirib keldi. Shoir xalqining ana shunday eng yaxshi xislatini tarannum etadi. Tong sahardan erta ishga chiqib, «Qolındı qabartıp, belíndi búgip, hadal miynet penen tapqan bir zağarañ, miynetsiz tapqan paldan artıq» (qo‘lingni qavartib, belingni bukib, halol mehnat bilan topgan bir zag‘arang, mehnatsiz topilgan boldan yaxshiroq), deydi shoir.

Dissertatsiyada Berdaqning har bir asari islom dinining muqaddas manbalari Qur‘on oyatlari va hadisi sharif, ibratli voqealarga asoslangan falsafiy fikrlar

ta'sirida yaratilgani misollar bilan dalillanilgan. Shu bilan birga Berdaq ijodiga ta'sir qilgan voqea-hodisalar faqat diniy e'tiqod emas, balki turkiy xalqlari orasida qadim zamonlardan buyon saqlanib kelayotgan e'tiqodlarning ta'siri yoritildi. Berdaq asarlarini falsafaning asosiy masalalariga bog'liq qarashlari nuqtayi nazaridan tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim. Berdaqning ma'naviy merosi yoshlarni tarbiyalashda ibrat maktabi, tuganmas boy xazina bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xazinadan eng katta boylik – ilm izlash hozirgi yoshlar oldidagi muhim vazifadir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Berdaq ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yoshlar falsafiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishdagi tarixiy ahamiyati”** deb nomlanib, unda XIX asr qoraqalpoq xalqining o'z erki, o'zligini anglashiga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-diniy qarashlarining mohiyatini anglashga, substantSIONal ahamiyatiga ko'ra, kishilarda adolatga, bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali erkin yashashga undash ekanini to'g'ri idrok etish kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqotda Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida adolat va tenglik to'g'risidagi falsafiy g'oyalari yuksak e'tiborga sazovorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, adolat mezoniy tushunchasining axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, diniy jihatlari mavjud. Shoir o'z asarlarida, asosan, adolat, haqiqatni siyosiy jihatini talqin qiladi. Ya'ni davlat boshlig'ining odil bo'lishi, fuqarolarga teng munosabatda bo'lishi, hammaga teng ko'z bilan qarashi, birini ikkinchisidan yuqori qo'ymasligi, jamiyatda adolat o'rnatishi bilan bog'liq bo'lgan masalalar qiziqtirgan. Shuningdek, ular haqiqat va adolatni, qonun va tartibotni, ijod va erkinlikni, shafqat va muruvvatni ham yuqori baholagan. Bundan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yaxshilashga, jamiyatda adolatni qaror toptirish va jabr-zulmni bartaraf etishni ezgu g'oya tamoyili bilan bog'lashga harakat qilgan. Ezgulik va insonparvarlikni yuqori ijtimoiy-siyosiy boylikka, yuksak ma'naviy fazilatlarga aylantirish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzum, turli ijtimoiy aloqalarni o'zgartirish zarur edi. Berdaq o'z davrida jamiyatdagi salbiy illatlarni, nohaqlik, adolatsizlik va jabr-zulmni keskin tanqid qilish bilan birga ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirishga davat etuvchi g'oyalarning paydo bo'lishiga zamin hozirladi.

Faylasuf shoirning butun ijodida insonlar hayotining eng muhim jihatlarini o'rganish masalasi yotadi. U mehnat odamini, uning bag'rikengligini olqishlab, odamlarni bu real dunyoning ezguligini ko'rishga chin ixlosi bilan chaqiradi, faylasuf shoirning bu g'oyalari uning «Xalq uchun», «Kerak» va boshqa she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Berdaq to'rt unurni butun olamning asosi deb hisoblaydi. Undagi hamma narsa va hodisalar qarama-qarshiliklarga uchrab, o'zgarib turadi va rivojlanadi. “To'rt unsur” bu – tuproq, suv, olov va havodan yaralgan moddiy dunyo barcha tirik va notirik tabiatni tashkil qiladi. «Avesto»da to'rt unurni e'zozlangani kabi hayotning asosi va hayot falsafasi sifatida ulug'lash fikri tug'iladi. Tabiat, o'simlik va hayvonot olami uch mavliddan tarkib topgan holda faqat insonga xizmat qiladi. Yani inson bosh masalasi bo'lgan (antropotsentrizm) olamning tuzilishi haqida gap boradi.

Berdaqning qarashlarida, Alloh – yaratuvchi, butun mavjudotning ilk sababchisidir. Avval Alloh mavjud bo‘lgan. Xudo va tabiat mushtarakdir. Berdaq Xudoni abadiy, dunyodagi narsalar unga bog‘liq, deb hisoblaydi.

Berdaq olamni anglashda va mavjudotlarning “gultoji” bo‘lgan insonni anglashda yaratganning qudratiga ishonadi. Shu bois Sharqona qarashlarga muvofiq birinchi olamni, barcha mavjudotlarni yaratgan hamda tashqi olam va inson botiniy olamini yaratguvchiga hamdlar aytadi. Mutaфakking fikriga ko‘ra, olam va undagi mahluqotlarni yaratgan Alloh insonni hamma mavjudotdan mukammal qilib yaratgan. Olamning, borliqning sirlarini, hikmatini bilish va anglashga insongina qodirdir. Negaki, u ongli, aql-u farosati, tafakkur va nutq sohibidir. Demak, inson aql-u tafakkuri yordamida dunyoni, borliqni “o‘zlashtirishi” mumkin. Xudo insonni shunday qudratli zot qilib yaratgan.

Berdaq dunyoga, real hayotga va ularning o‘zaro munosabatlariga o‘ziga xos yondashdi. U mehnatkash insonlarning bag‘rikengligini olqishlab, odamlarni bu real dunyoning ezguligini ko‘rishga, chin ichki xususiyatlarini namoyon qilishga da‘vat etadi. Shoir asketizmning, ya‘ni tarkidunyochilikni, kecha-yu kunduz tinmasdan narigi dunyoni o‘ylashni qoralab, odamlarni bu dunyoning ajoyibotlaridan, lazzatlaridan bahramand bo‘lishga chaqiradi.

Berdaq asarlarining qahramonlari optimizm va o‘z kuchiga ishonch bilan qurollangan. Bu dunyoning azob uqubati-yu istibdodiga, zo‘rligiga, zulmiga qarshi kurashadigan odamlar bo‘lib, uni kuchsiz, ojiz jon egasi deb qaramasdan, balki faol, ongli, ijodiy ish bajara oladigan quvvatli kuch, deya ta‘kidlab o‘tgan. Berdaq bilishning amaldagi ma‘nosiga alohida e‘tibor qaratilishi, uning gnoseologik xulosalari alohida ahamiyatga ega. Berdaq ongni, «o‘z ruhi»ni odam jaholatga qarshi kurashda, mehnat orqali doimo chiniqishi kerak deb hisoblagan.

Dissertaciyada shoirning yoshlar har qanday vaziyatda ilm egallashi zarurligini va buning insoniyat uchun foydasi ko‘p ekanligini «Men ma‘rifat izler edim» (Men ma‘rifat izlar edim) yoki «Men alimlik izler edim» (Men olimlik izlar edim) degan satrlari mazmunini tahlil qilinadi. Chunki o‘z atrofidagi mavjudlikni bilishga faqatgina inson zoti qodir ekanligini ta‘kidlaydi. U ilm har qanday vaziyatda ham birinchi odamga zarurligini, johillik esa baxtsizlik degan g‘oyani ilgari surib, «Jo‘gimnan tappadim dārek, sārdarimdı izler edim» (Yo‘g‘imdan topmadim darak, sardorimni izlar edim), degan fikrlar orqali bayon qilinganligi ta‘kidlanib o‘tilgan.

Berdaq qoraqalpoq xalqi tarixida ozodlik uchun kurashining voqealariga boy va qiyin davrlarining birida tug‘ilib, ijod qilgan mutafakkirdir. XIX asr qoraqalpoq xalqi ozodlik harakatlari davri edi. Xiva amaldorlarining rahmsiz zulmiga javoban qoraqalpoqlar xonlikning hududida yashovchi boshqa xalqlarning mehnatkashlari bilan birgalikda bir necha marta qurolli qo‘zg‘olan ko‘tardi. Bu siyosiy, madaniy va iqtisodiy voqealarning barchasi Berdaqning siyosiy dunyoqarashi o‘sishi uchun asos bo‘ldi. Bu borada, ya‘ni Berdaqning adolat va tenglik to‘g‘risidagi qarashlari e‘tiborga molikdir.

Berdaqning butun ijodiy faoliyatida haqiqat g‘oyalari aks etadi. Elning ijtimoiy hayotida xalq ommasining rolini yuqori baholash jamiyatning barcha

moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishdagi xalqning rolini chuqur e'tirof etish o'ziga xosdir. Mutafakkir xalqning orini himoya qilib, o'zining adabiy va ijtimoiy xizmati bilan uning eng yaxshi an'alarini mustahkamladi va rivojlantirdi. Xalqning hayotini chuqur bilgan, u haqiqat xalq shoiri sifatida saroy pozitsiyasining an'analarga qaramasdan bor ixlosi bilan oddiy dehqonlarning, hunarmandlarning, baliqchilarning orzularini, muddaolarini qo'yladi, ulardagi axloqiylik belgilarini e'zozladi.

Haqiqatdan ham qoraqolpoq xalqning jipslashib, bir jon-u bir tan bo'lib, qilgan harakatlari o'z samarasini berishiga astoydil ishongan. Chunki, "xalq – o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, so'nmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. Yolg'onga, aldovga duch kelgan paytda uning asriy qadriyatlari, doimo uyg'oq vijdoni tilga kiradi, nohaqlikka, qabihlikka qarshi kurashga da'vat etadi"¹. Yurtda qaror topgan adolatli, ijtimoiy tenglik va ozod jamiyat ana shunday oliyjanob vazifani bajarishga yo'naltiriladi.

Berdaq o'z xalqi uchun adolatli podshoni bir umr orzu qilib yashagan. Adolat tushunchasi jamiyat hayotining belgilovchi mezon sifatida qaraladi, va unga qarshi bo'lganlarga o'zining nafratini bildiradi. Agar tarixga nazar solsak, Sharq allomalari ijtimoiy-siyosiy qarashlarida «odil shoh, odil hukmdor» timsolini yaratganlar. Ular yurt farovonligi, xalqning tinchligi, kishilarning to'la-to'kis yashashini odil hukmdor faoliyati bilan bog'laganlar. Ular hukmdor madaniyatli, ma'rifatli, aqlli, qat'iyatli, halol va pok, xalqning g'am-tashvishlari bilan yashaydigan, hammaga bir xil munosabatda bo'ladigan, beva-bechoralar va miskanlarga yordam beradigan insonparvar shaxs bo'lsa, u holda jamiyat ravnaq topadi va gullab-yashnaydi degan g'oyani qo'llab-quvvatlaganlar. Agar shoh johil, adolatsiz, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, savotsiz, irodasiz, tamagir va raiyatning manfaatini himoya qilmaydigan odam bo'lsa, mamlakat tanazzulga uchrab, xalqning ahvoli yomonlashadi, ochlik, jaholat, tubanlik, laganbardorlik, oqibatsizlik, o'zaro nifoq, urush-janjallar avjiga chiqadi. Bunday g'oyalarni Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy va boshqa mutaffakirlar asarlarida uchratishimiz mumkin.

Berdaq o'z asarlarida «adolatsizlik» tahliliga ham e'tibor qaratgan. U jamiyat, yurt taraqqiyotini orqaga tortadigan adolatsizlikni qoralaydi. Jabr-zulmni jamiyatning eng katta dushmani va yomon amallarning boshi, deb hisoblaydi. Hukmdorga yurtni boshqarishda oqilona maslahatlar berish, to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun ko'pni ko'rgan, tajribali davlat ahllari zarur. Chunki shohning taxti omonat bo'lib qoladi. Hukmdor yonida mamlakat va davlat ishlarida siyosiy bilimga ega, insonparvar kishilar bo'lishi zarur.

Shoir o'z elini, xalqini, yerining barcha tabiatini, xalqining eng yaxshi an'analari bilan xulq-atvorini g'oyat chuqur hurmat qilgan. Ammo elida mavjud narsalarning barchasini yoppasiga sevmaydi. Xalqni ezib, azoblab o'tirgan ezuvchilar, ularning iflos va qo'pol xulq-atvoriga nafrat bilan qaragan. Shoirning o'z yurtiga, mehnatkash xalqiga bo'lgan muhabbati ezuvchi zolimlarga bo'lgan

¹ Миллий истикилол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар (ўрта махсус, касб-хунар таълим муассасалари учун дарслик). –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашириёти”, 2003. - Б.85.

nafrati bilan yanada to'lishib, chuqurlashadi. Ayniqsa, el-xalq mavzusi bilan shoirning ijtimoiy g'oyalari bir-biriga boshqa motivlardan ham tig'iz aloqada aks ettiriladi. Shoir o'z xalqining taqdirini, chuqur muhabbat bilan bayon qilar ekan, har bir joyda xalqning yaxshi hayoti haqidagi ijtimoiy qarashlarida aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Berdaqning axloqiy-estetik qarashlarida yoshlarni barkamollik ruhida tarbiyalashning ilmiy-amaliy ahamiyati”** deb nomlanib, unda Berdaqning yoshlarni barkamollik ruhida tarbiyalash va ularning dunyoqarashini shakllantiruvchi jihatlar ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Berdaq asarlaridagi ilg'or axloqiy-estetik g'oyalar, ideallar, tamoyillar ijobiy qahramonlar obrazlarida keng ravishda tasvirlanadi. Bundan tashqari mutafakkirning asarlarida jamiyatdagi turli toifalarning axloqiy-ma'naviy qiyofasi yoritilgan. Ayniqsa, uning falsafiy-axloqiy mazmundagi keng dunyoqarashi bir necha asarlari, jumladan, «Xalıq ushın», «Ahmoq podsho» dostonlarida ham aks etgan. Ularda ota-onaga, yaqin do'stlarga muhabbat, qanoat, himmat, saxiylik kabi tushunchalar tahlilini kuzatishimiz mumkin. Berdaq axloqiy ta'limotining asosiy mazmuni inson ma'naviy-axloqiy masalalarini o'z ichiga qamrab olgan. Shuning uchun mutafakkirning boy falsafiy-axloqiy ta'limoti va qarashlari hozirgi kunda ham yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishda va ularning kreativ fikrlash ko'nikma va malakalarini oshirishda asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Berdaq qoraqalpoq adabiyotini, falsafasini yuksak darajada rivojlantiruvchi mutafakkir shoirlaridan biridir. Uning axloqiy ta'limoti, yetuklik darajasidagi g'oyalari va qarashlari sharq xalqlarining boy, an'anaviy xalq og'zaki ijodi va diniy manbalar hamda sharq mumtoz mutafakkirlarining fikrlari bilan kundalik turmush tarzi asosida shakllangan.

